O’ZLASHTIRMA NUTQ VA O’ZLASHTIRMA SO’ROQ
(o’zbek va fransuz tillari misolida)

Sayfullayev Baxshillo Nematulloyevich
Buxoro davlat universiteti Fransuz filologiyasi kafedrasi o’qituvchisi
b.n.sayfullayev@buxdu.uz
Shomurodova Lola Ixtiyor qizi
Buxoro davlat universiteti IV bosqich talabasi

КОСВЕННАЯ РЕЧЬ, ВОПРОСИТЕЛЬНАЯ КОСВЕННАЯ РЕЧЬ
(на примере узбекского и французского языков)

Сайфуллаев Бахшилло Нематуллоевич
преподаватель кафедры французской филологии
Бухарского государственного университета
b.n.sayfullayev@buxdu.uz
Шомуродова Лола Ихтияр дочь
Бухарский государственный университет студент IV ступени

INDIRECT SPEECH, INTERROGATIVE INDIRECT SPEECH
(in the example of Uzbek and French languages)

Saifullayev Bakhshillo Nematulloyevich
Teacher of the Department of French Philology at
Bukhara State University
b.n.sayfullayev@buxdu.uz
Shomurodova Lola Ikhtiyar’s daughter
Bukhara State University IV stage student

Annotatsiya: Maqola kommunikativ maqsad kategoriyasining muhim yo’nalishlaridan biri o’zga nutq va uning ifoda usullaridan biri bo’lgan o’zlashtirma nutqning o’zbek va fransuz tillarida qo’llanilishiga bag’ishlangan. Unda asosan diqqat e’tibor o’zlashtirma nutq (le discours indirect) va o’zlashtirma so’roqning matniy xususiyatlariga qaratilgan. Shu bilan birga ikki tilda o’zlashtirma so’roqning funksional-semantik xususiyatlariga izoh berilgan.

Kalit so’zlar: o’zga nutq, o’zlashtirma nutq, o’zlashtirma so’roq, nutq fe’li, qo’shtirnoq, tire, ikki nuqta, zamon moslashuvi.

Аннотация: Статья посвящена способам выражения в узбекском и во французском языке чужой речи, являющейся одним из важных направлений

категории коммуникативной цели, и ее простому приему, косвенной речи. В нем основное внимание сосредоточено на текстовых особенностях косвенной речи (le disours indirect) и вопросительной косвенной речи. При этом объясняются функционально-семантические особенности вопросительной косвенной речи на двух языках.

Ключевые слова: чужая речь, косвенная речь, вопросительная косвенная речь, речевой глагол, кавычка, дефис, двоеточие, согласование времён.

Abstract: The article is devoted to the ways of expressing someone else’s speech in Uzbek and French, which is one of the important areas of the category of communicative purpose, and its simple technique, indirect speech. It focuses on the textual features of indirect speech (le disours indirect) and interrogative indirect speech. At the same time, the functional and semantic features of other types of speech in two languages are explained.

Key words: someone else’s speech, indirect speech, interrogative indirect speech, speech verb, quotation mark, hyphen, colon, tense agreement.

Kirish. O’zga nutq hodisasi zamonaviy tilshunoslikda kommunikativ maqsad kategoriyasining muhim yo’nalishlaridan biridir. So’zlovchi hamma vaqt ham o’z fikrinigina bayon etibgina qolmay, ba’zan u o’zganing gapini ham o’z nutqi ichida ishlatadi. Shu asosda qo’shma gapning yana bir maxsus turi hosil bo’ladi. O’zganing gapini ifoda etuvchi shaxs-muallif, uning nutqi esa muallif gapi deyiladi. Muallifning ma’lum shaxs fikrini o’z nutqi ichida keltirishi o’zganing gapi, gapi ifoda qilinayotgan shaxs so’zlovchi (*o’zga*) sanaladi. O’zga nutq ifodasida so’zlovchi borliq haqida o’z fikrini emas, o’zgalarning fikri yoki suhbatini bayon qiladi.

Asosiy qism. Kommunikativ maqsad kategoriyasining muhim yo’nalishlaridan biri bo’lmish o’zga nutq hodisasi zamonaviy tilshunoslikda o’z o’rniga ega yo’nalishlardan biridir. O’zga nutq 3 turga bo’lingan holda kommunikatsiya hodisasi sifatida shakllanadi. Bular[1, 254]:

1) ko’chirma nutq (*le discours direct*)

2) o’zlashtirma nutq (*le discours indirect*)

3) o’ziniki bo’lmagan ko’chirma nutq (*le discours indirect libre*)

Ko’chirma nutqda o’zganing nutqi shakl va mazmun jihatdan o’zgartirilmay tinglovchiga yetkaziladi. So’zlovchining nutqini so’zma-so’z berishning zarurati bo’lmagan paytda o’zlashtirma gap qo’llaniladi. Ba’zan o’zganing gapi ko’chirma gap bilan o’zlashtirma gap oralig’ida bo’ladi. Bunda o’zganing fikri muallif gapisiz-so’zlovchining ishtirokisiz bayon qilinadi, ya’ni muallif ko’chirma gapdagi so’zlovchi vazifasini bajaradi. Shuning uchun bunday gaplar o’ziniki bo’lmagan ko’chirma gap hisoblanadi [5, 294]. O’zga nutqning bu turi faqat badiiy adabiyotga xos bo’lib, muallif

matniga qo’shilgan xolda asar qahramonlari fikr va tuyg’usini ifodalaydi, ularning ichki dunyosini ochib berishga xizmat qiladi.

O’zga nutq ifodalanishining ikkinchi muhim usuli o’zlashtirma nutqda ko’chirma xabardan farqli o’laroq nutqning sintaktik tuzilishi tubdan o’zgaradi. Uning o’ziga xos bir nechta grammatik belgisi bor:

1) o’zbek tilida sintaktik yo’l bilan hosil bo’ladigan o’zlashtirma gap shaklan sodda va mazmunan murakkab gap bo’lsa, fransuz tilida bunday gaplar to’ldiruvchi ergash gap shaklida bo’ladi;

2) fransuz tilida ergashtiruvchi bog’lovchi (*que, si, de*...) qo’llanadi;

3) shaxs shakli o’zgaradi (*odatda III shaxs*).

O’zlashtirmalik sintaktik va morfologik yo’l bilan hosil bo’ladi. Morfologik yo’l bilan hosil bo’ladigan o’zlashtirmalik qiyoslanayotgan tillardan faqat o’zbek adabiy tiliga xos, fransuz tilida esa o’zlashtirmalikning faqat birinchi ya’ni sintaktik yo’l bilan hosil bo’ladigan turi mavjud.

O’zbek tilida o’zlashtirmalik ikki usul bilan ifoda etiladi: biri sintak¬tik, biri morfologik. Sintaktik yo’l bilan hosil bo’luvchi o’zlashtirmalikning eng kichik ko’rinishi ikkita o’zak, negizga qo’shimcha yoki yordamchi so’z qo’shish bilan yasaladi. O’zbek tilida morfologik yo’l bilan hosil bo’ladigan o’zlashtirmalik mazmunan uch xil ko’rinishga ega: 1) o’zlashtirma buyruq, 2) o’zlashtirma xabar (istak va hokazo), 3) o’zlashtirma so’roq.

O’zbek tilida o’zlashtirma xabar (istak va hokazo), o’lashtirma buyruq, o’zlashtirma so’roq ma’nolarni ifodalashda quyidagi vositalar qo’llanadi: *-(i)bdi, -adi (-ydi), -gan, -gan ekan, -gan emish, -(a)r ekan, -(a)r emish, -(a)yotgan ekan, -(a)yot¬gan emish, -adigan (-ydigan) ekan, -adigan (-ydigan) emish, -moqchi ekan, -moqchi emish, -sin ekan, -sin emish* shakllari hamda ot va boshqa so’z turkumlari *ekan, emish* to’liqsiz fe’li va b:

*O’g’lim aytdi, do’stlari bilan gaplash**ibdi**.*

*Oyim aytdilar, darsingni qil**ar ekan**san.*

*O’qituvchi so’rayapti, o’quvchilar musobaqaga qatnash**ar ekan**mi?*

Bu vositalar o’zlashtirma buyruq, o’zlashtirma xabar va o’zlashtirma so’roqni gap va mikromatnda ifodalaydi.

Fransuz tilida o’zbek tilidan farqli o’laroq o’zlashtirmalik fakat sintaktik yo’l bilan amalga oshiriladi. Sintaksis nuqtai nazaridan o’zlashtirma gap to’ldiruvchi ergash gapga mos kelib bunday qo’shma gapda zamonlar moslashadi. O’zlashtirma gap darak, buyruk va so’rok formalarda bo’ladi [2, 227, 228].

O’zlashtirma nutq o’zga nutqni uzatishning yana bir usulidir. Bunda u muallif nutqiga grammatik jihatdan moslashadi. Aytilgan gap odatda muallif gapi tarkibidagi nutq fe’li (*masalan, dire-aytmoq, s’écrier-hayqirmoq, demander-so’ramoq, exiger-talab qilmoq va hokazo*) ning tobe bo’lagi sifatida shakllanadi va ergashgan qo’shma

gap hosil bo'ladi. Bunda muallif nutqi bosh gap funksiyasini bajarsa, aytilgan gap ergash gap vazifasida keladi va ular ***que*** bog'lovchisi va ***si, de*** hamda bog'lovchi vazifasida keladigan boshqa leksik birliklar bilan bog'lanadi.

Fransuz tilida bog'lovchi tanlash, zamon va shaxs moslashuvlari o'zlashtirma nutqning muhim jihatlaridan biridir.

O'zlashtirma nutqda aytilgan gap turiga qarab turli xil bog'lovchi vazifasidagi leksik birliklar (***que, si, de***) qo'llaniladi:

1) darak va undov gaplar o'zlashtirma gap sifatida berilganda "***que***" (***a, e, i, o, u, y*** va ***h*** harflar bilan boshlangan so'zlardan oldin ***qu'***) bog'lovchisi qo'llaniladi:

Le journaliste dit ***qu'****il y a une manifestation contre la réforme*.

2) fransuz tilida buyruq gap ikki xil usulda o'zlashtirma gapga aylantiriladi. Biri sodda gap tarzida kelib unda aytilgan gapning o'zlashtirilgan buyruq qismi asosiy feldan "***de***"+*infinitif* ko'rinishida voqelanadi, ikkinchisi esa xohish istak (*subjonctif*) mayli qo'llanilgan to'ldiruvchi ergash gap ko'rinishini oladi.

Il m'a dit ***de faire*** *ce rapport-là.*

Il m'a dit ***que je fasse*** *ce rapport-là.*

3) So'roq o'zlashtirma gaplar gap bo'lagiga berilgan so'roqqa qarab bosh gapga turli so'zlar vositasida bog'lanishi mumkin.

a) so'roq so'zsiz va ***est-ce que*** iborasi bilan yasalgan so'roq gaplar o'zlashtirilganda ***si/s'*** (***il*** yoki ***ils*** dan oldin) bog'lovchisidan foydalaniladi:

Il demande ***si*** *tu aimes Paris.*

Le journaliste demande ***s'****il y a une manifestation contre la réforme.*

b) so'roq o'zlashtirma gapda kesimga savol berilganda, u bosh gapga ***si*** bog'lovchisi orqali bog'lanadi :

"Fait-il chaud ?" a demandé Anvar.

Anvar a demandé ***s'****il faisait chaud.*

c) so'roq o'zlashtirma gapda ega va vositasiz to'ldiruvchiga savol berilganda ular quyidagicha ifodalanadi :

- shaxs bilan ifodalangan ega yoki vositasiz to'ldiruvchi bosh gapga ***qui*** so'roq so'zi orqali bog'lanadi:

« Qui est de service ? » a-t-il demandé.

Il a demandé ***qui*** *était de service.*

Oziza m'a demandé : « Qui as-tu rencontré ? »

Elle m'a demandé ***qui*** *j'avais rencontré.*

- predmet bilan ifodalangan ega yoki vositasiz to'ldiruvchi bosh gapga ***ce qui, ce que*** so'zlari orqali bog'lanadi :

Mon ami m'a demandé : « Qu'est-ce qui t'inquiète ? »

Elle m'a demandé ***ce qui*** *m'inquiétait.*

Farkhod leur a demandé : "Que ferez-vous demain ? »

*Farkhod leur a demandé **ce qu'**ils feraient demain.*

•shaxs bilan ifodalangan vositali to'ldiruvchi bosh gapga predlog bilan qo'llangan ***qui*** so'roq so'zi orqali bog'lanadi :

Akbar m'a demandé : "A qui pensez-vous ? »

*Il m'a demandé **à qui** je pensais.*

Tolib a demandé : « De qui parle-t-il ? »

*Tolib a demandé **de qui** il parlait.*

•predmet bilan ifodalangan vositali to'ldiruvchi bosh gapga predlog bilan qo'llangan ***quoi*** so'roq so'zi orqali bog 'lanadi :

Abror m'a demandé : « A quoi penses-tu ? »

*Abror m'a demandé **à quoi** je pensais.*

Chavkat a demandé : « Avec quoi écrivez-vous ? »

*Chavkat lui a demandé **avec quoi** il écrivait.*

•shaxs va predmet bilan ifodalangan aniqlovchi bosh gapga ***quel*** so'roq so'zi bilan bog'lanadi :

J'ai demandé à mes amis : « Quel film avez-vous vu ? »

*Je leur ai demandé **quel** film ils avaient vu.*

Mon ami a demandé : " Quelle délégation est arrivée ? »

*Mon ami a demandé **quelle** délégation etait arrivée.*

•o'zlashtirma gapda holga berilgan so'roq ko'chirma gapdagi so'roq so'z bilan bog'lanadi, ya'ni so'roq so'z o'zgarishsiz qoladi :

Elle a demandé à son amie : « Quand tes parents sont-ils arrivés ? Oû sont-ils à present? Comment vont-ils ?"

*Elle a demandé à son amie **quand** ses parents étaient arrivés, **oû** ils étaient et **comment** ils allaient.*

•so'roq so'zli so'roq gaplar o'zlashtirilganda so'roq so'z bog'lovchi vazifasida qo'llaniladi :

*Le journaliste demande **où/quand/pourquoi** il y a une manifestation contre la réforme.*

Xulosa. O'zlashtirmalik sintaktik va morfologik yo'l bilan hosil bo'ladi. O'zbek tilida o'zlashtirmalik ikkila usul bilan ifoda etiladi. Sintaktik yo'l bilan hosil bo'luvchi o'zlashtirmalikning eng kichik ko'rinishi ikkita o'zak, negizga qo'shimcha yoki yordamchi so'z qo'shish bilan yasaladi. O'zbek tilida morfologik yo'l bilan hosil bo'ladigan o'zlashtirmalik mazmunan uch xil ko'rinishga ega: 1) o'zlashtirma buyruq, 2) o'zlashtirma xabar (istak va hokazo), 3) o'zlashtirma so'roq.

Fransuz tilida esa o'zlashtirmalik hodisasi sintaktik yo'l bilan amalga oshiriladi. Sintaksis nuqtai nazaridan o'zlashtirma gap to'ldiruvchi ergash gapga mos kelib, muallif nutqiga grammatik jihatdan moslashadi. Aytilgan gap odatda muallif gapi tarkibidagi nutq feli (masalan, dire-aytmoq, s'écrier-hayqirmoq, demander-so'ramoq,

exiger-talab qilmoq va hokazo) ning tobe bo'lagi sifatida shakllanadi va ergashgan qo'shma gap hosil bo'ladi. Fransuz tilida bog'lovchi tanlash, zamon va shaxs moslashuvlari o'zlashtirma nutqning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Hervé-D. Béchade. Syntaxe du français moderne et contemporain (Fondamental). –Paris : France, 1993. –338.
2. Маллина Л. Е., Андрейчикова Л. П., Турниёзов Ў. Француз тили грамматикаси (Морфология, синтаксис). -Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 280 б.
3. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 232 б.
4. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 391 б.
5. O'zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. – Toshkent: Fan, 1976.– 560 b.
6. Ғуломов А.Ғ., Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент: Ўқитувчи, 1965. – 315 б.
7. Nematulloevich S. B. TRANSLATION SKILLS IN FRENCH-UZBEK LITERATURE RELATIONS (ON THE EXAMPLE OF THE UZBEK TRANSLATION OF ALBERT CAMUS'S" PLAGUE") //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – Т. 18.
8. Jumayev E. -(A) P ЭКАН ШАКЛИ ВА ЎЗЛАШТИРМА БУЙРУҚ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
9. Jumayev E. O'zbek adabiy tilida so'roq gap va o'zlashtirmalik //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
10. Nematulloyevich S. B. Indirect Speech in the French Language //INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 157-161.
11. Nematulloevich S. B. Translation Skills In French-Uzbek Literature Relations (on the Example of The Uzbek Translation of Albert Camus's" Plague") //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – Т. 18.
12. Рўзиев Я. Б. ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИДА КЎЧИРМА ВА ЎЗЛАШТИРМА НУТҚНИНГ ТАЛҚИНУ ТАВСИФИ //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – 2022. – С. 68.
13. Ruziev Y. ЎЗБЕК ТИЛИДА БИРИНЧИ ТУР ЎЗЛАШТИРМАЛИК ВА ГАП //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
14. Ruziev Y. O 'ZBEK TILIDA O 'ZLASHTIRMA NUTQ VA GAP //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.

15. Худоев С. TOPISHMOQ MATNINING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI (OZBEK-NEMIS TOPISHMOQLARI MISOLIDA) Annotatsi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.

16. Худоев С. ЖАҲОН ФОЛЬКЛОРИДА ТОПИШМОҚ ЖАНРИ ВА УНИНГ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 26. – №. 26.